Abstract. This article analyzes the current state of the processes of introducing and managing digitally marked goods (Data Matrix, QR marking) in the tax system of Uzbekistan and the main problems in their improvement. The study examines the legal framework of the marking process, electronic control mechanisms, technical limitations in product identification, the quality of data exchange, and the effectiveness of the digital infrastructure created for business entities. It also covers in detail the problems encountered in marking — insufficient equipment, failures in the integration of digital systems, incorrect scanning, data delays, and the low level of electronic cooperation between tax authorities and businesses. At the end of the article, organizational and technical solutions are proposed to improve the digital marking system, strengthen integration, automate control and monitoring, as well as practical recommendations aimed at reducing costs for entrepreneurs.

Key words: tax system, digitalization, tax administration, digital labeling, product identification, electronic control, data exchange, digital infrastructure, integration, labeling system, digital monitoring, business entities.

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние процессов внедрения и управления цифровой маркировкой товаров (Data Matrix, QR-маркировка) в налоговой системе Узбекистана и основные проблемы их совершенствования. В исследовании рассматриваются правовые основы процесса маркировки, механизмы электронного контроля, технические ограничения при идентификации товаров, качество обмена данными и эффективность созданной цифровой инфраструктуры для субъектов предпринимательства. Также подробно освещаются проблемы, возникающие при маркировке, — нехватка оборудования, сбои в интеграции цифровых систем, некорректное сканирование, задержки данных и низкий уровень электронного взаимодействия налоговых органов и бизнеса. В конце статьи разработаны организационно-технические решения по совершенствованию системы цифровой маркировки, усилению интеграции, автоматизации контроля и мониторинга, а также практические предложения, направленные на снижение издержек предпринимателей.

Ключевые слова: налоговая система, цифровизация, налоговое администрирование, цифровая маркировка, идентификация товаров, электронный контроль, обмен данными, цифровая инфраструктура, интеграция, система маркировки, цифровой мониторинг, субъекты предпринимательства.



KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamlashtirish jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Xususan, tovarlarni raqamli markirovkalash tizimini joriy etish soliq ma'murchiligini takomillashtirish, yashirin aylanmalarni kamaytirish, kontrafakt mahsulotlar oldini olish hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli markirovka mahsulotlarning ishlab chiqarishdan tortib iste'molchiga yetguniga qadar butun harakatini kuzatish imkonini beruvchi zamonaviy nazorat mexanizmi hisoblanadi. Shu bilan birga, markirovka tizimini keng joriy etish jarayonida texnik, tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy xarakterdagi bir qator muammolar ham kuzatilmoqda. Uskunalarining yetishmasligi, axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiyaning to'liq shakllanmagani, tadbirkorlik sub'yektlarining yangi talab va texnologiyalarga moslashishidagi qiyinchiliklar, ma'lumotlarni qayta ishlash sifati hamda nazorat mexanizmlarining yetarli darajada avtomatlashtirilmagani ushbu tizimning samaradorligini pasaytirmoqda. Mazkur tadqiqotda soliq tizimida raqamli markirovkalangan tovarlar raqamlashtirish jarayonining amaldagi holati, mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi, shuningdek markirovka tizimi samaradorligini oshirish, davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvi imkoniyatlarini kengaytirish hamda tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi soliq ma'murchiligida joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari masalasiga oid qisqacha adabiyotlar sharhi keltiriladi. Soliq majburiyati – jismoniy shaxs, korporatsiya yoki boshqa yuridik shaxsning davlat oldidagi soliq qarzining umumiy summasidir. Daromad solig'i, savdo solig'i va kapital daromad solig'i soliq majburiyatlarining barcha shakllaridir (Jonson, 2022) [1]. Soliq majburiyatining ta'rifi jismoniy yoki yuridik shaxsning davlatga soliq bo'yicha qarzi bo'lgan pul yoki qarz miqdoridir (Jozepson, 2022) [2]. Demak, anglashilmoqdaki, soliq majburiyatlari soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarab ketmoqda. Ya'ni, ushbu tadqiqot doirasida soliq to'lashdan bo'yin tovlash tushunchasining iqtisodiy mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash deganda jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq majburiyatlarini qonunga xilof ravishda kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan keng ko'lamli faoliyat tushuniladi. Soliq majburiyatlari soliq tizimlarining standart va huquqiy jihati bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash firibgarlik yo'li bilan ushbu majburiyatlardan qochish yoki ularni kamaytirishga qaratilgan jinoiy harakatdir [3]. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash tarix davomida hamma joyda keng tarqalgan bo'lib, ushbu atama soliqlarning adolatli ulushini to'lashni istamaydiganlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni o'z ichiga oladi (Ovusu va boshq., 2019). Daromadni kamaytirib ko'rsatish, chegirmalarni ortiqcha ko'rsatish va moliyaviy hujjatlarni manipulyatsiya qilish soliq to'lashdan bo'yin tovlashning keng tarqalgan strategiyalaridir (Ozili, 2020).

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasida yo'qotilgan daromad miqdori esa har qanday mamlakatda katta bo'lishi mumkin [4]. Ko'pgina soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha tadqiqotlar individual xatti-harakatlarni aniq kontekstda ko'rib chiqib, axloqiy, ishonch, munosabat, idrok, niyat, xabardorlik, madaniyat, dindorlik, bilim va ta'lim kabi individual omillarga bog'liqligini ta'kidlaydi (Alm va boshq., 2019). Shaxsiy daromad solig'i bo'yicha soliq to'lashdan bo'yin tovlash eng ko'p o'rganilgan yo'nalishlardan biri bo'lib, jismoniy shaxslar daromadni kam hisobot qilish, chegirmalar va imtiyozlarni bo'rttirib ko'rsatish, soliq deklaratsiyasini o'z vaqtida topshirmaslik yoki umuman soliq to'lamaslik orqali soliqdan qochishi mumkin (Efeeloo va Dik, 2018). Korxonalar ham xuddi shunday tarzda yuridik shaxslar daromad solig'i bo'yicha majburiyatlardan bo'yin tovlashi mumkin [5]. Adabiyotda iqtisodiy omillar – soliq stavkasi, moliyaviy cheklovlar, daromad darajasi, soliq yuki, korrupsiya, iqtisodiy tuzilma, audit, jarima va ishsizlik kabi ko'rsatkichlar muhim omillar sifatida ko'rsatiladi. Richardson (2016) soliq to'lashdan bo'yin tovlashda iqtisodiy bo'lmagan omillar iqtisodiy omillarga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Korrupsiya hokimiyat yoki vakolatli shaxsning shaxsiy manfaat yo'lida rasmiy vakolatni suiiste'mol qilishi bilan izohlanadi (Khelif va Amara, 2019). Ishsizlik esa mehnatga layoqatli, biroq haq to'lanadigan ishga ega bo'lmagan, lekin faol ravishda ish qidirayotgan shaxslar sifatida belgilanadi (Tabandeh va Tamadonnejad, 2015), tadqiqotlarga ko'ra esa ishsizlik yashirin iqtisodiyotning asosiy manbalaridan biridir [6]. Yaqinda olib borilgan tadqiqotlarda soliq to'lashdan bo'yin tovlashga ta'sir etuvchi omillar qatoriga davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va axborot tarqatish darajasi ham kiritilmoqda.

So'nggi yillarda hukumatlar internet texnologiyalaridan foydalanish orqali davlat xizmatlarini soddalashtirish va optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda (Uyar va boshq., 2021; Montenegro, 2021). Hushtakbozlik tizimlari esa korxonalar ichida noqonuniy yoki axloqsiz faoliyatni oshkor qilish orqali audit aniqlash ehtimolini oshiradi (Masslet va boshq., 2019).



TAHLIL VA NATIJALAR

Xufiyona aylanma va yashirin iqtisodiyotning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini qisqartirish borasida mamlakatimizda keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilayotganiga qaramay, ayrim shaxslar tomonidan mo'may daromad olish maqsadida aholiga sifatsiz yoki qalbaki mahsulotlarni (spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, dori vositalari, salqin ichimliklar va boshqalar) realizatsiya qilish holatlari avj olib bormoqda. Bunday holatlar nafaqat insofli soliq to'lovchilar huquqlariga, balki insonlar salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Noqonuniy olib kiritilgan yoki noqonuniy ishlab chiqarilgan sifatsiz spirtli ichimliklarni iste'mol qilinishi natijasida 2022-yil Toshkent shahrida 8 kishi, 2023-yil Samarqand shahrida 5 kishi, 2024-yil Andijon viloyatida 5 kishi va Samarqand shahrida 17 kishi spirtli ichimlikdan zaharlanib vafot etgan. Achinarlisi, bunday holatlar har yili qayd etilmoqda. Tamaki mahsulotlarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish borasida 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar natijasida 291 ta holatda Respublika hududiga qiymati 88,4 mlrd.so'mlik jami 5,6 mlrd.quti tamaki mahsulotlarining noqonuniy olib kiritilishi oldi olingan. Shunga qaramay, 2022-yilda mamlakatga 316 ta holatda umumiy qiymati 19,0 mlrd.so'mlik 1,6 mlrd.quti tamaki mahsulotlari olib kiritilgan. Sifatsiz va (yoki) qalbaki dori vositalarini noqonuniy ravishda aholiga sotilishini oldini olish bo'yicha 2023-yil birgina Toshkent shahrida o'tkazilgan bitta nazorat tadbirining o'zida yaroqlilik muddati o'tgan, qiymati 2,2 mlrd.so'mlik dori vositalarining muomalaga kiritilganligi aniqlangan. O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, 2024-yilda markirovkalanishi lozim bo'lgan mahsulotlarni markirovkasiz ishlab chiqarish xavfi mavjud bo'lgan holatlar soni 16 tani tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan (6 ta) 10 taga, saqlash va realizatsiya qilish xavfi mavjud bo'lgan holatlar soni 34 tani tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan (23 ta) 11 taga va soxtalashtirilgan (kontrafakt) yoki ilgari ishlatilgan markirovka kodlari yordamida sotish xavfi mavjud bo'lgan holatlar soni 41 tani tashkil qilib, 2023-yilga nisbatan (5 ta) 36 taga oshgan. Markirovka talablariga rioya etilishi bo'yicha o'tkazilgan 1200 ta nazorat tadbirlarida (759 ta alkogol, 219 ta tamaki, 182 ta dori vositalari va 67 ta maishiy texnika mahsulotlari savdosi) huquqbuzar shaxslarga nisbatan 16,9 mlrd.so'm miqdorida jarimalar qo'llanilgan.

Xorij tajribasiga ko'ra: 1) Rossiyada amaliyotga joriy etilgan "Честный знак" tizimi soliq organlariga markirovkalash qoidalari buzilganligi haqida tezkor qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etadi. Ushbu axborotlar asosida o'tkazilgan soliq nazorati tadbirlari natijasida soliq xavfi keskin pasayadi hamda insofli soliq to'lovchilar huquqlari himoya qilinadi. Bunda soliq organlari ushbu holatlar bo'yicha soddalashtirilgan tekshiruvlarni o'tkazishlari mumkin. Bu tekshiruvlar soliq bazasini yashirish yoki kamaytirib ko'rsatish holatlari bo'yicha soliq hisobotlariga (deklaratsiyalar) asoslanadi va buyruqsiz amalga oshirilishi mumkin. 2) AQShda Soliq xizmati (IRS) soliq bazasini yashirish yoki kamaytirib ko'rsatish holatlarini aniqlash uchun turli avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanadi. Kompaniya tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan soliq summaları o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelgan taqdirda tegishli qaror va buyruqlarsiz soliq tekshiruvlari o'tkazilishi mumkin. 3) Germaniyada soliq organlari agar soliq bazasi yashirilgan deb gumon qilinsa, tekshiruvni buyruqsiz o'tkazishlari mumkin. 4) Buyuk Britaniyada soliq xizmati (HMRC) soliq buzilishlarini aniqlash uchun soddalashtirilgan mavzuli tekshiruvlarni qo'llashi mumkin. Bunda soliq bazasi yashirilgan taqdirda avtomatlashtirilgan tizimlar soliq hisobotlaridagi ma'lumotlar va haqiqiy ma'lumotlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni tegishli qarorsiz tekshirishi mumkin. 5) Fransiyada soliq organlari avtomatlashtirilgan tekshiruvlarni soliq buzilishlari va qarzdorliklarni aniqlash uchun qo'llashi mumkin, bu esa tekshiruvni buyruqsiz o'tkazish imkonini beradi. Agar joriy muammolar hal etilmasa, 2030-yilga kelib markirovkalanishi lozim bo'lgan ayrim turdagi xalq iste'mol tovarlarini O'zbekistonga noqonuniy olib kirish, ishlab chiqarish va sotish holatlari keskin oshib ketish xavfi mavjud. Xususan, onlayn nazorat-kassa mashinalarini o'rnatgan 223,8 mingta tadbirkorning 135 mingtasi (60%) tomonidan soxtalashtirilgan (kontrafakt) yoki ilgari ishlatilgan markirovka kodlaridan foydalanish, 165 mingtasi (74%) tomonidan qo'llanilgan (ishlatilgan) markirovka kodlari haqidagi ma'lumotlarni Operatorga yubormaslik yoki noto'g'ri ma'lumot yuborish, 100 mingtasi (45%) tomonidan esa sotilgan mahsulotlarning har bir birligi uchun markirovka kodlari to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan elektron hisobvara-q-fakturani rasmiylashtirmasdan sotish xavfi ortishi natijasida byudjetga bir necha yuz milliardlab miqdorda savdo tushumlaridan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar tushmay qolish xavfi yuzaga keladi. Shuningdek, bugungi kunda Soliq qo'mitasining Tovarlarni markirovkalash nazorati bo'limi faoliyati tahlil qilinsa, bo'limning vazifalari va funksiyalariga quyidagilar kiradi: markirovkalanadigan tovarlar bo'yicha tegishli takliflarni ishlab chiqish, tizimni to'liq joriy qilish yuzasidan vakolatli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikdagi tadbirlarni amalga oshirish, majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish samaradorligini tahlil qilish, markirovka qoidalari buzilishi yuzasidan holatlarni o'rganish va Qo'mita rahbariyatiga tegishli ma'lumotlarni kiritish, ilg'or xorij tajribasini o'rganib, raqamli markirovka tizimi ma'muriyatchiligi va siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash, tizimni joriy qilish bo'yicha biznes-jarayonlarni optimallashtirish, yangi mahsulot guruhlarini raqamli markirovkalash bo'yicha tajriba loyihalarini amaliyotga joriy qilish va monitoringini olib borish, markirovka talablari va qoidalari yuzasidan tadbirkorlik sub'yektlari hamda aholiga tegishli tushuntirishlar berish.



Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi: a) markirovkalanadigan tovarlar bo'yicha tegishli takliflarni ishlab chiqish, shuningdek mazkur tizimni to'liq joriy qilish yuzasidan vakolatli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikdagi tadbirlarni amalga oshirish sohasida: qo'mita markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari tomonidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hamda idoraviy hujjatlarni ko'rib chiqadi; markirovka tizimini joriy qilish bo'yicha tegishli ma'lumotlarni Qo'mita rahbariyati hamda tegishli vazirlik va idoralarga kiritib boradi; soliq to'lovchilarning raqamli markirovka to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etishlariga qarab ta'sir choralari amalga oshirish, shu jumladan rag'batlantirish masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etilishi samaradorligini tahlil qilib borish sohasida: markirovka tizimiga tegishli qonunchilikka o'zgartirish kiritish bo'yicha ishlab chiqilgan loyihalarni o'rgangan holda qonunchilikdagi o'zgarishlarning dolzarbligi va yangi ma'muriy vositalardan foydalanish samaradorligini tahlil qiladi; ayrim turdagi mahsulotlarni raqamli markirovkalash tizimi samaradorligini tahlil qilgan holda uni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi. Markirovka qoidalariga rioya etilishi holatlarini tahlil qilish va Qo'mita rahbariyatiga tegishli ma'lumotlarni kiritish sohasida: Bo'lim doimiy ravishda Qo'mita rahbariyatiga o'z faoliyati to'g'risida ma'lumotlar, takliflar hamda amalga oshirilgan ishlari bo'yicha hisobotlar berib boradi; markirovka tizimini joriy etish ma'muriyatchiligi va siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorij tajribasini o'rgangan holda takliflar tayyorlaydi; markirovkalanadigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va import qiluvchilar tomonidan buyurtma qilingan va realizatsiya qilingan markirovka kodlarini tahlil qilish orqali tovar qoldiqlarini aniqlaydi; markirovkalanadigan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi ulgurji va chakana savdo korxonalari tomonidan xarid qilingan mahsulotlardagi markirovka kodlari bilan ONKM va elektron hisobvara-faktura orqali realizatsiya qilingan mahsulotlardagi markirovka kodlarini tahlil qiladi; markirovkalanadigan mahsulotlarni realizatsiya qiluvchi chakana savdo korxonalari tomonidan 2D skaner qurilmalari orqali ONKM cheklarida realizatsiya qilingan mahsulotlardagi markirovka kodlarining aks ettirilganlik holatini tahlil qiladi; markirovka qoidalariga amal qilinishiga oid umumiy tahlillarni amalga oshiradi.

Raqamli markirovka tizimini joriy etilishida ma'muriyatchilik va siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorij tajribasini o'rgangan holda takliflar tayyorlash sohasida: xalqaro tashkilotlar bilan markirovka tizimini integratsiya qilish jarayonida Hukumat komissiyasi tomonidan yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlaydi va tegishli xulosalarni taqdim etib boradi; markirovka tizimini rivojlantirish hamda uning afzalliklari va imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganadi; markirovka tizimini integratsiya qilish masalalari bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda asoslantirilgan takliflar tayyorlaydi va ularni amalga oshirish choralari ko'radi.

Raqamli markirovka tizimini joriy etilishi bo'yicha biznes-jarayonlarni optimallashtirish sohasida: markirovka tizimini joriy qilish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha tegishli tuzilmalar bilan hamkorlikda tadbirlarni amalga oshirib boradi; mahsulotlarni ishlab chiqarish va olib kirish (import) bosqichida mahsulotlarni markirovkalash jarayonlarini tizimli o'rganadi va tahlil qiladi, shuningdek ushbu jarayonlarni takomillashtirish va optimallashtirishni amalga oshiradi; markirovkalangan mahsulotlar bo'yicha hisobot berish jarayonlarini nazorat qiladi va optimallashtiradi; elektron hisob-fakturalarda va onlayn nazorat-kassa mashinalari cheklarida identifikatsiya kodlarini aks ettirish jarayonlarini optimallashtiradi. Tajriba tariqasida yangi mahsulot guruhlarini raqamli markirovkalash bo'yicha loyihalarni amaliyotga joriy qilish va kelgusida monitoringini olib borish sohasida: soliq solish bazasini kengaytirish maqsadida markirovka tizimi ishtirokchilari, mahsulot turlari hamda mahsulotlarning hisobga olinishini ta'minlash, ularni qamrash va hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi; Qo'mita Hay'ati ish rejaları va qarorlariga asosan tegishli masalalarni o'rganib chiqadi, Hay'at va xizmat yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda tegishli masalalarni kiritadi. j) Markirovka tizimi joriy etilishi, shuningdek markirovka talablari va qoidalar yuzasidan tadbirkorlik sub'ektlariga hamda aholiga tegishli tushuntirishlar berish: O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari va boshqa tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan raqamli markirovkalash masalalari bo'yicha majlislarda va boshqa tadbirlarda ishtirok etadi, shuningdek raqamli markirovkalash bilan bog'liq masalalarni tushuntirish bo'yicha tadbirlarni tashkil etadi; taqdimotlar va matbuot anjumanlarini o'tkazish maqsadida mahsulotlarni raqamli markirovkalash to'g'risida ma'lumot tayyorlaydi; raqamli markirovkalash masalalarida soliq to'lovchilar, yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadi va ular bo'yicha tushuntirishlar beradi, shuningdek ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish uchun tushuntirish axborot materiallarini ishlab chiqadi; mahsulotlarni raqamli markirovkalashga oid normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgartirishlar, qo'shimchalar va yangiliklar to'g'risida xabarnomalar ishlab chiqadi hamda soliq to'lovchilarga korespondensiya va shaxsiy kabinet orqali jo'natadi. Bo'lim qonunchilik hujjatlarida hamda Qo'mitaning ichki idoraviy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifa va funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

Quyidagilar Bo'limning majburiyatlari hisoblanadi: o'z vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda boshqa hujjatlari, Qo'mita Hay'atining qarorlari, Qo'mitaning ichki idoraviy hujjatlari va ushbu Nizom ijrosini ta'minlash, shuningdek ularning ijrosi monitoringi va nazoratini amalga oshirish; jismoniy va yuridik



shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda tegishli qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish; davlat, tijorat va xizmat sirlarini oshkor etmaslik; Bo'lim tomonidan vazifa va funksiyalar bajarilishida xufiyona iqtisodiyotni yuzaga kelishi va korrupsiya holatlarini oldini olish bo'yicha, shu jumladan manfaatlar to'qnashuvini hal etish choralari ko'rish; ish yuritishni belgilangan tartibda olib borish; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari, Qo'mita Hay'ati va xizmat yig'ilishlari topshiriqlari hamda Rais topshiriqlarini nazoratdan olish jarayonida topshiriq ijrosi to'g'risida tayyorlangan hujjatlarni albatta «Elektron hujjat almashish» avtomatlashtirilgan axborot tizimi (EHA) orqali Tashkiliy ishlar va nazorat boshqarmasi bilan elektron shaklda kelishish; Bo'lim qonunchilik hujjatlarida hamda Qo'mitaning ichki idoraviy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

Bo'lim xodimlari o'z funksional vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi; O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, Qo'mitaning ichki idoraviy hujjatlari hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilmaganligi; ijro intizomini buzganligi; o'zining noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) tufayli soliq to'lovchilarga moddiy va ma'naviy zarar yetkazganligi; rahbariyat topshiriqlarining o'z vaqtida amalga oshirilishi ustidan zarur nazoratni ta'minlamaganligi; o'zining noqonuniy xatti-harakatlari (harakatsizligi) tufayli soliq to'lovchilarning ishlab chiqarish hajmlarini pasaytirganligi va soliq solish bazasini kamaytirganligi; qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat, tijorat va xizmat siriga rioya etmaganligi uchun belgilangan tartibda javob beradi. Bo'lim xodimlari qonunchilik hujjatlarida hamda Qo'mitaning ichki idoraviy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham javobgar bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Markirovka tizimlarini to'liq integratsiyalash. Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi, Savdo inspeksiyasi, laboratoriyalar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida yagona ma'lumotlar almashinuvi platformasini yaratish, tovar harakati bo'yicha real vaqt monitoringini yo'lga qo'yish. Texnik infratuzilmani kuchaytirish. Markirovka skanerlarini va Data Matrix o'quvchi qurilmalarni subsidiyalash yoki imtiyozli kredit asosida taqdim etish, internet sifati past hududlarda offline-rejimda ishlaydigan markirovka tizimlarini joriy etish.

Markirovka jarayonini soddalashtirish. Tadbirkorlar uchun markirovka kodini yaratish, skanerlash va ro'yxatga olish bo'yicha "bir tugma"lik yechimlarni ishlab chiqish hamda yangi tizimga moslashtirilgan, oson foydalaniladigan mobil ilovalar yaratish. Tadbirkorlar uchun xarajatlarni qisqartirish. Kichik biznes uchun markirovka xizmatlari tariflarini qayta ko'rib chiqish, mahalliy skaner va printerlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Nazorat mexanizmlarini avtomatlashtirish. Tovar aylanmasini kuzatish bo'yicha avtomatik risk-modellarini joriy etish, kontrafakt mahsulotlarni aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish. Iste'molchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish. Har bir xaridor markirovka kodini tekshirganda bonus yoki cashback olish tizimini joriy etish, soxta mahsulotni aniqlagan iste'molchiga mukofot berish mexanizmini ishlab chiqish. Analitika va monitoringni rivojlantirish. Markirovka ma'lumotlari asosida soha bo'yicha statistik hisobotlarni avtomatlashtirish va tovar ta'minot zanjiridagi xavfli nuqtalarni aniqlovchi analitik panel (dashboard) yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/-4674902>
2. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz
3. Efeeloo N., Disk N. (2018). An Empirical Review of the Determinants of Tax Evasion in Nigeria: Emphasis on the Informal Sector Operators in Port Harcourt Metropolis. Journal of Accounting and Financial Management, 4(3), 1–10. <https://d1wqtxs1xzle7.sloudfnont.net/63209917>
4. Johnson Janet Berry (2022). Tax Liability: Definition, Calculation, and Example. The Investopedia Team, October 26. <https://www.investopedia.com/terms/t/taxliability.asp>
5. Josephson Amelia (2022). The Ultimate Guide to Tax Liability. November 16. <https://smartasset.com/taxes/tax-liability>
6. Masslet D., Montmarquette S., Viennot-Briot N. (2019). Can whistleblower programs reduce tax evasion? Experimental evidence. Journal of Behavioral and Experimental Economics, 83, 101459. <https://doi.org/10.1016/j.socec.2019.101459>
7. Owusu G.M.Y., Bekoe R.A., Anokye F.K., Anyetei L. (2019). What Factors Influence the Intentions of Individuals to Engage in Tax Evasion? Evidence from Ghana. International Journal of Public Administration, 43(13), 1143–1155. <https://doi.org/10.1080/01900692.2019.1665686>
8. Ozili P.K. (2020). Tax evasion and financial instability. Journal of Financial Crime, 27(2), 531–539. <https://doi.org/10.1108/JFC-04-2019-0051>
9. Richardson G. (2016). The Determinants of Tax Evasion: A Cross-Country Study. In: Financial Crimes: Psychological, Technological, and Ethical Issues, 33–57. https://doi.org/10.1007/978-3-319-32419-7_2
10. Muxammadov N.K. (2024). Ma'lumotlarni elektron hujjat aylanish tizimida shakllantirish orqali soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari. Dissertatsiya ishi. Toshkent, 156 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
